
Qo'shtepada saxovat tadbirlari davom etmoqda

Mehrga muhtoj oilalarni yo'qlash, ularga yordam ko'rsatish xalqimizning qon-qoniga singgan eng azaliy qadriyatlarimizdan biri hisoblanadi. Ayniqsa, bayram arafasida bu kabi mehr-muruvvat va xayriya tadbirlarining ko'lami yanada ortadi.

Yangi yil bayrami munosabati bilan Qo'shtepa tumanida ijtimoiy ko'makka muhtojlarga muruvvat ko'rsatishdek xayrli amallar keng quloch yoygan.

Barcha mahallalarda tashkillanayotgan saxovat tadbirlari va yo'qlovlarda yoshi ulug' keksalar, imkoniyati cheklangan va ehtiyojmand oilalar vakillariga muruvvat ko'rsatilib, ko'ngillarga shodlik ulashilmoqda.

Jumladan, "Xalqobod" mahallasida hududidagi kam ta'minlangan, ehtiyojmand oilalarga saxovatpesha xomiylar tomonidan un mahsulotlari terildi. "Loyson" mahallasida esa huddi shunday oilalarning bayram dasturxoniga oziq-ovqat mahsulotlari yetkazib berildi.

Bunday saxovat tadbirlari tumanimiz bo'ylab davom etmoqda.

2024-12-25 10:18:15